O'simliklar temirni tuproq orqali o'zlashtiradi. Temir tuproqda asosan Fe^{+3} xelatlar ko'rinishida bo'lib, turli fiziologik sharoitlarda, ayniqsa pH yuqori bo'lgan ishqoriy tuproqlarda o'simliklar temirni yetarli darajada o'zlashtira olmaydi. Og'ir metallarning organik birikmalarga bog'lanishiga $Fe(III)$ ning ishlarida yoritib

berilgan. Fe(III) ning karboksil hamda fenol guruhlari bilan kuchli bog' hosil qila olish qobiliyati uning organik moddalar funksional guruhlari bilan raqobatlasha olishiga sabab bo'ladi. Tabiiy suvlarni kinetik metod yordamida tahlil qilish orqali Fe(II) -, va Fe(III)-fulvat kislotalari komplekslarini aniqlangan. Biroq, botqoqlik suvlarini tahlil qilish orqali esa temirning faqat Fe(III)-gumus kislota komplekslari aniqlashga muvaffaq bo'lingan.

Kobalt organizmda Co^{2+} ioni 4 va 6 KS bilan, Co^{3+} esa KS 6 bo'lgan kompleks holida bo'ladi. Bu biometall vitamin B12 tarkibiga kirib, uning yetishmovchiligi oqibatida anemiya (kam qonlik) kasalligini rivojlantiradi. Hayvon jigari va o'tli ozuqalar bu biometalning manbasi hisoblanadi. Co^{2+} ionining asosiy vazifasi aldolaza va karboangidraza kabi fermentlarni faollashdir. Shuningdek Co^{2+} ionining kislorodning qayta transporti va proteoliz jarayonlarida faol ishtiroki aniqlangan [49; 50].

O'simlik organizmidagi Co^{2+} ionining asosiy fiziologik vazifasi tirik xujayradagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlaridagi ishtirokidir. U karboksillash, peptid bog' va fosforli efirlarni gidrolizlash, fosfat guruxlarni olib kelish va shunga o'xshash reaksiyalarda boshqa metallar bilan nospetsifik qatnashadi. Kobalt qator nospetsifik fermentlarni faollashtiradi. Masalan: ekolaza, kinaza, pirovino kislota, shuningdek, peraksidazaning aktivligini kamaytirishi hisobiga indol uksus kislota parchalanishini sekinlashtiradi. Ammo buning bilan uning fermentativ reaksiyalardagi roli chegaralanmaydi. O'simlik organizmidagi asosiy fiziologik vazifalaridan biri kobaltning energiya almashinuvi va nafas olish jarayoniga ta'sir etishidir. Kobalt muhim biometallardan biri bo'lganligi sababli, uning yangi komplekslarini sintez qilish va fazoviy tuzilishi o'rganish bo'yicha, ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlarda olingan komplekslarning monokristali olinib RTT yordamida tuzilishi aniqlangan va kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan.

Rux ko'pchilik fermentlar tarkibiga kiradi, u o'simliklarda xlorofillning hosil bo'lishida ishtirok etadi, vitaminlar sintezini amalga oshiradi. Rux o'simliklar organizmida kechadigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi.

Uning yetishimoviningda fosfor almashinuvi buziladi: noorganik (anorganik) fosfat miqdori ortadi, uning organik formalarga aylanishi sekinlashadi, bu o'simlik barglarida xlorotik dog'lar hosil bo'lib, och yashil ba'zi o'simliklarda hattoki oq tusga kirishiga olib keladi. Tabiatda rux birdan-bir barqaror Zn^{2+} ioni shaklida mavjud [51; 52]. Birinchi bo'lib, bu metallning biologik tizimlardagi roli XXI asrda *Aspergillus niger* mog'or zamburug'i uchun muhim komponent sifatida ajratib olingan. Hozirgi vaqtgacha to'plangan ma'lumotlarga asosan ta'kidlash mumkin-ki, rux tirik organizmlardagi fiziologik funksiyalarni amalga oshirishda muhim element hisoblanadi

I bob bo'yicha xulosa

Ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tarkibida biometallar va 8-oksixinolin bo'lgan komplekslar sinteziga doir ilmiy-tadqiqot ishlari hamda ishlab chiqarishda asosan funktsional guruhlarni turli materiallarga kimyoviy biriktirish yoki organik polimer va mineral tashuvchilarga reagentlarni nokovalent kiritish yo'li bilan olingan anion almashinuvchi hamda kompleks birikmalar hosil qiluvchilardan ko'proq foydalanilgan. Adabiyotlarni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar tahliliga asosan shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, tabiiy mineral ob'ektlardan mikrokontsentratsiyaga ega bo'lgan turli metallarionlarini kontsentrlash va ajratish uchun sodda, qulay, kompleks hosil qiluvchi metall ionlarni qo'llashning tezkor usullarini ishlab chiqish zarur. Bu usullar esa mikroelementlarni ajratishda yaxshi tanlovchanlikka ega bo'lishi va keng tarqalgan instrumental analiz usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, qulay, arzon va zaharli bo'lmagan preparatlardan foydalanib, yangi komplekslarni yo'naltirilgan sintezini yaratish, sintez jarayonlarida begona elementlardan tozalash darajasini nazorat qilish va olingan koordinatsion birikmalarni foydalanishning murakkab bo'lmagan, eng samarador usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

8-oksixinolin yoki uning hosilalari ishtirokida sintez qilingan kompleks birikmalar o'simliklarda, qishloq xo'jaligida fungitsid va konservant sifatida ishlatiladi. Qolaversa to'qimachilik, yog'ochsozlik va qog'oz sanoatida hamda keng tarqalgan metallarning komplekslarini hosil qilish uchun ishlatilib kelinmoqda. Barcha 8-oksixinolin hosilalarini insektitsidlar, antibakteriallar, fungitsidlar, neyroprotektivlar va OIV ga qarshi vositalar sifatida tibbiyotda qo'llash mumkin. Sintezda ushbu tadqiqotning maqsadi, fizik-kimyoviy tadqiqotlar yordamida Ni(II), Co(II) ning koordinatsion birikmasi yangi Shiff bilan asosiy ligand sifatida kompleks hosil qilgani o'rganildi.

2. Tadqiqot obyekti va usullari

2.1. § Reaktivlar, asboblari, tadqiqot usullari

Ni(II) atsetat - $\text{Ni(II)(CH}_3\text{COO)}_2$ yashil kristallar modda. Bir oz sirka kislotasi hidi keladi. Kimyoviy formulasi $\text{C}_4\text{H}_6\text{NiO}_4$ Zichlik $1,798 \text{ g/sm}^3$ Eruvchanligi sirka kislotada, Metanolda eriydi dietil efir, n-oktanolda erimaydi

Ni(II) nitrat. $\text{Ni(II)(NO}_3)_2$ Qaynash harorati : 137°C Erish harorati: $56,7^\circ \text{C}$

Suvsiz shakl odatda uchramaydi, shuning uchun "nikel nitrat" odatda nikel (II) nitrat geksagidrati ko'rinishida bo'ladi. Ushbu formula $\text{Ni(NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ nikel (II) markazi gidratlangan tuzda oltita suv molekulasini bilan o'ralgan. Nitrat anionlari nikel bilan bog'lanmagan. zichlik: $2,05 \text{ g/sm}^3$ Eruvchanligi: $238,5 \text{ g/100 ml}$ yashil rahgli kukunsimon kristall modda.

Co(II) atsetat. kobalt atsetat $\text{Co(CH}_3\text{COO)}_2$ sirka kislotaning kobalt tuzi. Suvli eritmalaridan tetragidrat - monoklinik panjarali qizil kristallar shaklida kristallanadi. Gigroskopik, suvda erkin eriydi (25°C da og'irligi bo'yicha $33,7\%$), sirka kislotasi, izobutil va amil spirtlarida, amil asetatda eriydi, etanolda kam eriydi (25°C da $0,29\%$) 140°C da kristalli gidrat qisman parchalanish bilan suvsizlanadi. Suvsiz och pushti rangli kobalt asetat sirka angidridning kobalt nitratini $\text{Co(NO}_3)_2$ ta'sirida olinishi mumkin.

Co(II) Nitrat. $\text{Co(NO}_3)_2$ qizil kristallar, suvda oson eriydi, kristall gidratlar hosil qiladi. Suv, etanol, aseton, dioksan, tetragidrofuranda eriydi suyuqlanish harorati $200-300^\circ \text{C}$

Etil spirti -(vino spirti, etanol), $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ — bir atomli alifatik spirtlarning muhim vakili. Mol.m. $46,069$. Rangsiz, o'tkir ta'mli, spirtlarga xos hidli suyuqlik. Suyuqlanish temperaturasi — $114,5^\circ \text{C}$, qaynash temperaturasi $78,39^\circ \text{C}$, zichligi $789,27 \text{ kg/m}^3$ (20°C da). Suv bilan cheksiz aralashadi va tarkibida $95,57\%$ spirt, $4,43\%$ suv bo'lgan azeotrop aralashma hosil qiladi.

8-oksixinolin - (ortoooksixinolin, oksin) $\text{C}_9\text{H}_7\text{NO}$ tarkibiga ega geterosiklik organik birikma. Tibbiyotda oksixinolin ilgari ko'pincha mikroblarga qarshi vosita (oksixinolinlar guruhi) sifatida ishlatilgan. Ochiq sariq kristallar; mp $75 - 76^\circ \text{C}$,

osh qoshiq 267 °C; organik erituvchilarda eriydi: xloroformda 382 g/l, benzolda 319 g/l, izoamilsetatda 174 g/l, etil efir 96 g/l, izoamil spirtida 56,6 g/l; ishqor va kislotalarda, suvda - yomon (izoelektrik nuqtada minimal eruvchanligi 0,53 g/l (pH=7,2)). Suv bug'lari bilan osongina uchuvchan. 8-gidroksixinolin eritmaları yorug'likda qorayadi, shuning uchun ular qorong'i, salqin joyda saqlanishi kerak. 8-oksixinolin davriy sistemaning 40 dan ortiq elementlari bilan murakkab birikmalar hosil qiladi va past selektiv guruhli reaktivdir. 8-oksixinolinning suvli eritmalarida (sirka kislotasi, ammiak va boshqalar) yomon eriydigan ko'plab metall kationlari bilan hosil bo'lish qobiliyati kristalli kompleks ichidagi tuzlar (xelatlar), masalan, Mg (C₉H₆ON)₂, Al (C₉H₆ON)₃, ketma-ket metallarni (Al, Zn, Cd, Mg va boshqalarni) aniqlash va ajratish uchun amalda qo'llaniladi. Turli metallarning oksixinolinatlari rangi bilan farqlanadi va ularni fotometrik usulda aniqlash mumkin. Ularning xloroformda yaxshi eruvchanligi bir qator elementlarni ekstraksiya-fotometrik aniqlash uchun ishlatiladi. 8-gidroksixinolinning ba'zi hosilalari fungitsidlar [masalan, mis tuzi (C₉H₆ON)₂Cu] va amoebosidal va tashqi antiseptiklar sifatida ishlatiladi. 8-gidroksixinolinning alyuminiy bilan kompleksi organik yorug'lik chiqaradigan diodlarni (OLED) ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Xinolin yadrosidagi o'rinbosarlarning o'zgarishi turli lyuminesstent xossalarga ega bo'lgan materiallarni olish imkonini beradi.[48]

Tadqiqot ishini bajarishda "t" va "kt" markali reaktivlardan foydalanildi. Reaktivlar eritmaları ularning aniq tortimlarini ma'lum hajmdagi erituvchilarda eritib tayyorlandi.

Namunalar massasini aniqlash uchun raqamli KERN "ABS120-4" analitik tarozidan foydalanildi (xatolik darajasi ±0,0001 g);

Moddalarning bir tekis va tez eritish uchun harorati boshqariladigan ultrazvuk hammomidan foydalanildi (chastota 35 kGs, maksimal harorat 80°C, ±0,1°C);

Harorati va aylanish tezligi raqamli boshqariladigan magnitli aralashtirgich (maksimal harorat 300°C, ±0,1°C, aylanish tezligi 1000 ayl/min); Rentgenostrukturaviy tahlil uchun yaroqli monokristallarni tanlash, kristallarning

qo'shib o'sishini, kristalning rangi orqali individualligini haqida xulosa berish va kristallarning tasvirini olish uchun MBS-9 (x10), Leica mikroskoplaridan foydalanildi.

IQ – spektroskopiya. O'rganilayotgan kristall moddalar IQ –spektrlari "IR Traser-100" (SHIMADZU SORR., Yaponiya, 2017) spektrometrida qayd etildi. Spektrometrning yuqori sezuvchanligi (shovqin nisbati 60,000:1) spektrdagi diapazonlarining past intensivligiga qaramay, turli xil namunalardagi to'lqin miqdorini tahlil qilishga imkon beradi, to'lqin raqamlari shkalasi - $4000 \div 450 \text{ sm}^{-1}$. Interferometrning ishlashini optimallashtirish tizimi ichki o'zini tashxislash va o'rnatilgan avtomatik quritish moslamasi bilan birgalikda foydalanish qulayligini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, qurilmaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Yuqori tezlikda skanerlash rejimining mavjudligi (soniyasiga 20 spektr) bir necha soniya davom etadigan kuzatuv reaksiyalariga imkon beradi [49 56–63-b.].

2.2§ Ni(II)ning 8-oksixinolin va 2-aminoetan kislota ishtirokidagi aralash ligandli koordinatsion birikmalari sintezi

$[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{C}_2\text{H}_5\text{NO}_2)_2]$ kompleks birikmasini sintez qilish uchun analitik tarozida kerakli massalari 1:2 molyar nisbatda mos ravishda $\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ kristallogidratidan 24,9 mg 8-oksixinolindan 29 mg tortib olinib tegishli etanol+suvda aralashtirildi, dastlab tegishli miqdorda o'chab olingan tuzni 1 ml sirka kislotada eritib tiniq eritma hosil qilingan so'ng plitada 5 daqiqa davomida 60 °C haroratda magnitli aralashtirgich yordamida aralashtirildi. Boshqa idishga ligandni 96 % li etil spirtida eritib oldim bunda och sariq rangli tiniq eritma hosil bo'ldi. Tuz eritmasiga ligand eritmasini qo'shib ustidan 1-2 tomchi 2-aminoetan kislota tomizdim natijada sarg'ish rangli loyqa eritma hosil bo'ldi. Eritmani tiniq holga keltirish maqsadida kislotali muhit hosil qilish uchun HNO_3 kislotasidan 1-2 tomchi tomizib magnitli aralashtirgich yordamida 30 daqiqa davomida 60 °C haroratda qizdirdim. Eritma 7 kun davomida xona haroratida ochiq holatda saqlanadi, eritma erituvchilarining bug'lanishi hisobiga IQ tahliliga yaroqli yashil rangli blokka o'xshash kristallari olindi, olingan kompleks filtirlanib yuvildi. Xuddi shu tajribani $\text{Ni}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ tuzidan foydalangan holda ham bajardim bunda $\text{Ni}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ tuzidan 74,7 mg ligandan esa 29 mg miqdorini analitik tarozida tortib oldim. Hisoblashda tuz va ligandni 3:1 molyarlik nisbatida o'lchab olingan. Tortib olingan tuzni maxsus idishga solib 1 ml sirka kislotada eritdim so'ngra boshqa idishga tortib olingan ligandni 2 ml 96% li etil spirtida eritib ikkala eritmani arashtirgan holda 2-aminoetan kislotadan tomchi qo'shib oldim natijada sariq rangli loyqasimon eritma hosil bo'ldi eritmani tiniqlashtirish uchun HNO_3 kislotasidan 1-2 tomchi qo'shib magnitli aralashtirgich yordamida 30 daqiqa davomida aralashtirildi

$\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ tuzi, ligand va ularning erituvchilari uchun olingan miqdori

Mol nibati $\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$	Erituvchi CH_3COOH (ml)	Mol nibati ligand	Erituvchi etil spiriti 96% (ml)	Massasi (g) $\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$	Massasi (g)ligand
1	1	2	2	24.9	29
2	2	2	2	49.6	29
3	3	2	2	74.4	29

2.3 § Co(II)ning 8-oksixinolin va 2-aminoetan kislota ishtirokidagi aralash ligandli koordinatsion birikmalari sintezi

$[Co(C_8H_8NO)_2(C_2H_5NO_2)_2]$ kompleks birikmasini sintez qilish uchun analitik tarozida kerakli massalari 1:2 molyar nisbatda mos ravishda $Co(CH_3COO)_2 \cdot H_2O$ kristallogidratidan 19.4mg 8-oksixinolindan 29 mg tortib olinib tegishli sirka kislota aralashtirildi, dastlab tegishli miqdorda o'chab olingan tuzni 1 ml sirka kislotada eritib tiniq eritma hosil qilingandan so'ng pitada 5 daqiqa davomida 60 °C haroratda magnitli aralashtirgich yordamida aralashtirildi. Boshqa idishga ligandni 96 % li etil spirtida eritib oldim bunda och yashil rangli tiniq eritma hosil bo'ldi. Tuz eritmasiga ligand eritmasini qo'shib ustidan 1-2 tomchi 2-aminoetan kislotadan tomizdim natijada sarg'ish rangli loyqa eritma hosil bo'ldi. Eritmani tiniq holga keltirish maqsadida kislotali muhit hosil qilish uchun HNO_3 kislotasidan 1-2 tomchi tomizib magnitli aralashtirgich yordamida 30 daqiqa davomida 60 °C haroratda qizdirdim. Eritma 7 kun davomida xona haroratida ochiq holatda saqlanadi, eritma erituvchilarining bug'lanishi hisobiga IQ tahliliga yaroqli sariq rangli blokka o'xshash kristallari olindi, olingan kompleks filtrlanib yuvildi. Xuddi shu tajribani $CoCl_2 \cdot 6 H_2 O$ tuzidan foydalangan holda ham bajardim bunda $CoCl_2 \cdot 6 H_2 O$ tuzidan 19.4 mg ligandan esa 58 mg miqdorni analitik tarozida tortib oldim. Hisoblashda tuz va ligandni 1:2 molyarlik nisbatida o'chab olingan. Tortib olingan tuzni maxsus idishga solib 1 ml distillangan suvda eritdim so'ng boshqa idishga tortib olingan ligandni 2 ml 96% li etil spirtida eritib akala eritmani arashtirgan holda etilendiamindan 1-2 tomchi qo'shib oldim natijada yashil rangli loyqasimon eritma hosil bo'ldi eritmani tiniqlashtirish uchun HNO_3 kislotasidan 1-2 tomchi qo'shib magnitli aralashtirgich yordamida 30 daqiqa davomida 60 °C haroratda qizdirdim. Eritma 7 kun davomida xona haroratida ochiq holatda saqlanadi, eritma erituvchilarining bug'lanishi hisobiga IQ tahliliga yaroqli yashil rangli blokka o'xshash kristallari olindi, olingan kompleks filtrlanib yuvildi.

60 °C haroratda qizdirdim. Eritma 7 kun davomida xona haroratida ochiq holatda saqlanadi, eritma erituvchilarining bug'lanishi hisobiga IQ tahliliga yaroqli sariq rangli blokka o'xshash kristallari olindi, olingan kompleks filtirlanib yuvildi.

3- jadval

$\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ tuzi, ligand va ularning erituvchilari uchun olingan miqdori



Mol nibati $\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$	Erituvchi CH_3COOH (ml)	Mol nibati Ligand	Erituvchi Etil spiriti 96% (ml)	Massasi (g) $\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$	Massasi (g) Ligand
1	1	2	2	19.4	29
2	2	2	2	38.8	29
3	3	2	2	58.2	29

II bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiyaning ushbu qismida metallar va 8-oksixinolin orqali yangi kompleks birikmalar olish texnologiyasini olib borish metodikasiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot davomida foydalanilgan asbob-uskunalar va reaktivlarning tavsifi, maqsadli sorbentlarni sintez qilish usullari va sintez qilingan kompleks birikmani analiz qilishda qo'llanilgan zamonaviy tadqiqot hamda ularning fizik-kimyoviy xossalari aniqlash usullari atroflicha yoritilgan. Qolaversa tajriba uchun olingan reaktivlar xossalari ham atroflicha ko'rsatib o'tilgan Tajribani olib borish tartibi maqbul sharoitlar asbob uskunalarini ishlash tartibi va metodikalarini nazariy asoslarga tayangan holda amalga oshirilgan. Reaktivlarni o'lchashda metall va ligandning tegishli nisbatlari aniqlab olindi bunga ko'ra metall:ligand 1:2 va 1:3 nisbatlarda olinganda monokristallar paydo bo'lishi sezilarli darajada tezroq amalga oshdi. 8-oksixinolin suva erimasligi tufayli metallning suvdagi eritmalariga qo'shilganda amorf cho'kmalar hosil bo'lib qoladi shuning uchun tuzlarni tegishli kislotalarda ya'ni tuz hosil bo'lishida ishtirok etgan kislotalarda eritib olish yaxshi samara berdi.



3. Olingan natijalar va ularning tahlili

3.1§ Ni (II)ning 8-oksixinolin va 2-aminoetan kislota ishtirokidagi aralash ligandli koordinatsion birikmalarining fizik-kimyoviy tahlili



1-rasm $[Ni(C_9H_6NO)_2(C_2H_5NO_2)]$ kompleksining fazoviy tuzilishi (Chemdraw dasturida)

$[Ni(C_9H_6NO)_2(C_2H_5NO_2)]$ kompleks birikmasini element tahlil analizi ham o'rganildi. Olingan ma'lumotlar nazariy ma'lumotlar bilan solishtirildi. Bunga ko'ra nazariy jihatdan: C-57%, Ni-14%, O-15.2%, ni ko'rsatdi, tahlil natijalariga ko'ra ma'lum bo'ldiki C- 58%, Ni-13%, O-16% ni tashkil etdi.



2-rasm. a) 8-oksixinolin IQ-spektr tahlili

b) $[Ni(L)_2(2-AK)]$ kompleksining IQ-spektr tahlili

Olingan tahlil natijalariga ko'ra, spektrning $3751,55\text{ sm}^{-1}$ sohasida NH guruhining yuqori intensivlikka ega bo'lgan valent tebranishli chastotasi, $3271,27\text{ sm}^{-1}$ sohada OH (H bog' hosil qilgan) bog'iga mos valent tebranish chastotasi,


1575,84 sm^{-1} sohada esa CH_2 - bog'iga mos assimetrik valent tebranish, 1373,33 sm^{-1} sohada $\text{C}=\text{N}$ bog'ining valent tebranishi, 1290,73 sm^{-1} sohada $\text{C}-\text{N}$ bogiga mos valent tebranish va 673,16 sm^{-1} sohada $\text{O}-\text{Ni}$ bog'ining valent tebranish chastotalari ham kuzatildi.

4-jadval.

Ligand va kompleks birikma tarkibidagi bog'larning IQ-spektri tebranish chastotalari

IQ-spektrlaridagi tebranish chastotalari, sm^{-1}		Bog'lanishlar
8-oksixinolin (L)	$[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{C}_2\text{H}_5\text{NO}_2)]$	
—	3751.55	NH
3219.19	3271.27	OH
1577.7	1575.84	CH_2
1273.02	1373.33	$\text{C}=\text{N}$
—	1290.73	$\text{C}-\text{N}$
—	673.16	$\text{O}-\text{Ni}$

Shuningdek, Sintez qilingan $[\text{Ni}(\text{L})_2(2\text{-AK})]$ kompleksi kristalining termik turg'unligi differensial-termik va termogravimetrik usullarda Yaponiyaning SHIMADZU-DTG 60 firmasining qurilmasida tahlil qilindi. Tahlil uchun 12.5 mg kompleks birikmadan olinib, jarayon 600 °C gacha haroratda o'rganildi. Derivatografda 10 grad/min tezlikda, T-900, TG-200, DTA – 1/10, DTG – 1/10 galvanometr sezgirligida, derivatogrammani avtomatik yozib olish yo'li bilan o'rganildi.



3-rasm. $[\text{Ni}(\text{L})_2(2\text{-AK})]$ kompleksining termogravimetrik (TGA) va differensial termik analizi (DTA) dervotogrammasi.

$[\text{Ni}(\text{L})_2(2\text{-AK})]$ kompleksining termogravimetrik egri chizig'i tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'i asosan 3 ta intensiv massa yo'qotiladigan harorat oraliq'ida amalga oshadi. 1-massa yo'qotiladigan oraliq 28.62-125.44 °C haroratga, 2 – massa yo'qotiladigan oraliq 126.52-207.34 °C haroratga, 3-massa yo'qotiladigan oraliq esa 244.22-392.29 °C haroratga mos keladi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1-massa yo'qotiladigan oraliqda massa yo'qotilishi 5.262 mg, ya'ni 42.120 % kuzatilgan bo'lsa, 2-massa yo'qotiladigan oraliqda intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda massa yo'qotilishining asosiy miqdori 3.298 mg, ya'ni 26.399 % amalga oshadi. 3 – massa yo'qotiladigan oraliqda massa yo'qotilishi 1.877 mg, ya'ni 15,024 % ni tashkil etadi. Shundan xulosa qilamizki birinchi massa yo'qotilishi koordinatsion birikmaning suyuqlanib parchalanishi bilan bordi, keying asosiy parchalanish bosqichida koordinatsion birikmaning tarkibidagi 2-aminokislota to'liq chiqib ketishi bilan, 3-massa yo'qotilishi 8-oksixinolinning distruksiyaga uchrashi va oxirida metall oksidining qolishi bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari DTA egri



chizig'ida, 44.8-154.97, 362.39-419.63 °C oralig'larida energiyaning yutilishi yuz beradi. Eng yuqori issiqlik yutilishi 419.63 °C haroratda yuzaga keladi.

5-jadval

Analiz usuli	Kompleks birikma	[Ni(C ₉ H ₆ NO) ₂ (C ₂ H ₅ NO ₂)]
TGA egri chizig'i	1-massa yo'qotishdagi harorat oralig'i °C	28.62-125.44
	1-massa yo'qotilgan oraliqdagi massa mg	5.262
	2-massa yo'qotishdagi harorat oralig'i °C	126.52-207.34
	2-massa yo'qotilgan oraliqdagi massa mg	3.298
	3-massa yo'qotishdagi harorat oralig'i °C	244.22-392.29
	3-massa yo'qotilgan oraliqdagi massa mg	1.877
DTA egri chizig'i	1-energiya yutilishi °C	44.8-154.97
	2-energiya yutilishi °C	362.39-419.63


No	Atom	Bond Atom	Bond Length (Å)	Angle Atom	Angle (°)	2nd Angle Atom	2nd Angle (°)	2nd Angle Type
1	C(1)							
2	C(2)	C(1)	1.3370					
3	N(3)	C(2)	1.2600	C(1)	120.0000			
4	C(10)	C(2)	1.3370	C(1)	120.0000	N(3)	111.0000	Pro-R
5	Ni(12)	N(3)	1.8260	C(2)	104.0000	C(1)	-145.9572	Dihedral
6	C(4)	N(3)	1.2600	C(2)	115.0000	Ni(12)	120.0000	Pro-S
7	C(6)	C(1)	1.3370	C(2)	120.0000	N(3)	-15.5604	Dihedral
8	C(7)	C(1)	1.3370	C(2)	119.9988	C(6)	119.9988	Pro-R
9	C(9)	C(10)	1.3370	C(2)	120.0000	C(1)	0.0000	Dihedral
10	O(11)	C(10)	1.2250	C(2)	110.9992	C(9)	128.9983	Pro-R
11	C(5)	C(4)	1.3370	N(3)	120.0000	C(2)	-0.0000	Dihedral
12	C(8)	C(7)	1.3370	C(1)	120.0000	C(2)	-0.0000	Dihedral
13	N(13)	Ni(12)	1.0120	N(3)	90.0000	O(11)	174.9272	Pro-R
14	O(14)	Ni(12)	1.7900	N(3)	180.0000	O(11)	95.0409	Pro-S
15	C(15)	O(14)	1.3380	Ni(12)	104.0000	O(11)	-85.2991	Dihedral
16	C(16)	N(13)	1.4380	Ni(12)	104.0000	N(3)	145.4047	Dihedral
17	O(17)	C(15)	1.2080	O(14)	148.4520	C(16)	148.4520	Pro-R
18	H(18)	C(4)	1.1000	N(3)	120.0000	C(5)	120.0000	Pro-S
19	H(19)	C(5)	1.1000	C(4)	122.7583	C(6)	122.7583	Pro-R
20	H(20)	C(6)	1.1000	C(1)	130.2705	C(5)	130.2705	Pro-R
21	H(21)	C(7)	1.1000	C(1)	120.0000	C(8)	120.0000	Pro-R
22	H(22)	C(8)	1.1000	C(7)	125.0307	C(9)	125.0307	Pro-S
23	H(23)	C(9)	1.1000	C(8)	125.0312	C(10)	125.0312	Pro-R
24	H(24)	N(13)	1.0200	Ni(12)	128.0000	C(16)	128.0000	Pro-S
25	H(25)	N(13)	1.0200	Ni(12)	25.4048	C(16)	127.8825	Pro-R
26	H(26)	C(16)	1.1130	N(13)	108.6758	C(15)	108.6758	Pro-R
27	H(27)	C(16)	1.1130	N(13)	107.6794	C(15)	107.6794	Pro-S

3.2. § Co(II)ning 8-oksixinolin va 2-aminoetan kislota ishtirokidagi aralash ligandli koordinatsion birikmalarining fizik-kimyoviy tahlili



4-rasm $[Co(C_9H_6NO)_2(C_2H_5NO_2)]$ kompleksining fazoviy tuzilishi (Chemdraw dasturida)

$Co(C_9H_6NO)_2(C_2H_5NO_2)$ kompleks birikmasini element tahlil analizi ham o'rganildi. Olingan ma'lumotlar nazariy ma'lumotlar bilan solishtirildi. Bunga ko'ra nazariy jihatdan: C-57%, Ni-14%, O-15.2%, ni ko'rsatdi, tahlil natijalariga ko'ra ma'lum bo'ldiki C- 59%, Co-13%, O-16% ni tashkil etdi.



5-rasm. $[Co(L)_2(2-AK)]$ kompleksining IQ-spektri ($Co(C_2H_5NO_2)_2$)

Olingan tahlil natijalariga ko'ra, spektrning $3311,78 \text{ cm}^{-1}$ sohasida NH guruhining yuqori intensivlikka ega bo'lgan valent tebranishli chastotasi, $3269,34 \text{ cm}^{-1}$ sohada OH (H bog' hosil qilgan) bog'iga mos valent tebranish chastotasi,

2953,02 sm^{-1} sohada esa CH_2 - bog'iga mos assimetrik valent tebranish, 1566,20 sm^{-1} sohada $\text{C}=\text{N}$ bog'ining valent tebranishi, 1266,52 sm^{-1} sohada $\text{C}-\text{N}$ bogiga mos valent tebranish va 651,94 sm^{-1} sohada $\text{O}-\text{Co}$ bog'ining valent tebranish chastotalari ham kuzatildi.

7-Jadval

Ligand va kompleks birikma tarkibidagi bog'larning IQ-spektri tebranish chastotalari

IQ-spektrlaridagi tebranish chastotalari, sm^{-1}		Bog'lanishlar
δ -oksinolin (L)	$[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{C}_2\text{H}_5\text{NO}_2)]$	
—	3057.17	NH
3219.19	2598.12	OH
1577.7	1541.12	CH_2
1273.02	1573.91	$\text{C}=\text{N}$
—	1280.40	$\text{C}-\text{N}$
—	644.22	$\text{O}-\text{Co}$

$\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{C}_2\text{H}_5\text{NO}_2)$ tarkibli kompleksining kvant-kimyoviy hisobi

8-jadval

N ^o	Atom	Bond Atom	Bond Length (A)	Angle Atom	Angle (o)	2nd Angle Atom	2nd Angle (o)	2nd Angle Type
1	C(1)							
2	C(2)	C(1)	1.3370					
3	N(3)	C(2)	1.2600	C(1)	120.0000			
4	C(10)	C(2)	1.3370	C(1)	120.0000	N(3)	111.0000	Pro-R
5	Co(12)	N(3)	1.8360	C(2)	104.0000	C(1)	-136.2630	Dihedral
6	C(4)	N(3)	1.2600	C(2)	115.0000	Co(12)	120.0000	Pro-S
7	C(6)	C(1)	1.3370	C(2)	120.0000	N(3)	-24.6092	Dihedral
8	C(7)	C(1)	1.3370	C(2)	119.9988	C(6)	119.9988	Pro-R
9	C(9)	C(10)	1.3370	C(2)	120.0000	C(1)	0.0000	Dihedral
10	O(11)	C(10)	1.2250	C(2)	110.9992	C(9)	128.9983	Pro-R

11	C(5)	C(4)	1.3370	N(3)	120.0000	C(2)	-0.0000	Dihedral
12	C(8)	C(7)	1.3370	C(1)	120.0000	C(2)	0.0000	Dihedral
13	N(13)	Co(12)	1.8360	N(3)	90.0000	O(11)	90.0000	Pro-S
14	O(14)	Co(12)	1.8000	N(3)	90.0000	O(11)	90.0000	Pro-R
15	C(15)	O(14)	1.3380	Co(12)	104.0000	N(3)	-119.7681	Dihedral
16	C(16)	N(13)	1.4380	Co(12)	104.0000	N(3)	119.7679	Dihedral
17	O(17)	C(15)	1.2080	O(14)	141.3548	C(16)	141.3548	Pro-R
18	H(18)	C(4)	1.1000	N(3)	120.0000	C(5)	120.0000	Pro-R
19	H(19)	C(5)	1.1000	C(4)	119.8938	C(6)	119.8938	Pro-S
20	H(20)	C(6)	1.1000	C(1)	129.5120	C(5)	129.5120	Pro-S
21	H(21)	C(7)	1.1000	C(1)	120.0000	C(8)	120.0000	Pro-R
22	H(22)	C(8)	1.1000	C(7)	121.8970	C(9)	121.8970	Pro-R
23	H(23)	C(9)	1.1000	C(8)	121.8976	C(10)	121.8976	Pro-R
24	H(24)	N(13)	1.0200	Co(12)	128.0000	C(16)	128.0000	Pro-S
25	H(25)	N(13)	1.0200	Co(12)	49.5587	C(16)	77.9824	Pro-R
26	H(26)	C(16)	1.1130	N(13)	117.2858	C(15)	117.2858	Pro-S
27	H(27)	C(16)	1.1130	N(13)	128.2263	C(15)	128.2263	Pro-R

XULOSA

1. Ni (II), Co (II), Fe(II) ionlarining 8-oksixinolin va 2-Aminoetan kislota ishtirokidagi aralash ligandli koordinatsion birikmalari sintezi va sharoiti o'rganildi.

2. Dissertatsiya ishida hosil qilingan kompleks birikmalarning tuzilishi elektron mikroskopda va organik liganlarning reaksiya qobiliyati IR-spektri tahlili usullaridan foydalanib aniqlandi. Olingan tahlil natijalariga ko'ra spektrning tebranish chastotalari ligand spektrining tebranish chastotalaridan bir muncha farq qilishi aniqlandi buning sababi ligand tarkibidagi kislorod metall ioni bilan o'zaro bog'lanib kompleks birikma hosil qilishidir.

3. Co (II)ning 8-oksixinolin va 2-Aminoetan kislota ishtirokidagi aralash ligandli koordinatsion birikmalarining fazoviy tuzilishi o'rganildi.

4. Sintez qilingan koordinatsion birikmalarning termik tahlil qilinib ba'zi termoliz mahsulotlari identifikatsiya qilindi, dastlabki bosqichda ligand molekulasi parchalanadi. Oxirgi bosqichda metall oksidlari qoladi. Komplekslarning termolizi metall tabiatiga bog'liq bo'ladi.

5. Reagentlar miqdori va mahsulotlar miqdorlari alohida taqqoslab chiqilib, tegishli strukturalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 29-mart kuni o'tkazilgan Kimyo sanoati tarmog'ida amalga oshirilayotgan loyihalar taqdimoti bilan tanishish uchun o'kazilgan uchrashuvi.

[1] F. Tisato, F Refosco, G Bandoli. Structural survey of technetium complexes. *Coord. Chem.* 1994, 135: 325-397.

[2] N Demirezen, D Tarınc, D Polat, M Çeşme, AM Gölcü. *Tüner, SpectrochimicaActaA*, 2012, 94:243– 255.

[3] Trimethoprim .The American Society of Health-System Pharmacists.Retrieved. (2015).

[4] W Hungand C Lin *Inorg. Chem*, 2009, 48 (2): 728.

[5] MO Agwara, PTN difon, NB Ndosiri, AG Paboudam, DM Yufanyi, A Mohamadou Synthesis, characterization and antimicrobial activities of cobalt(II),copper(II) and zinc(II) mixed-ligand complexes containing 1,10-phenanthroline and 2,2-bipyridine. *Bull. Chem. Soc. Ethiop.*, 2010, 24 (3): 383-389.

[6] MO Agwara, JN Foba-Tendo, C Amah, DM Yufanyi, NB Ndosiri. Thermo gravimetric and antimicrobial properties of some divalent metal complexes of hexamethylenetramine. *RJPBCS*, 2012, 3(3): 95-104.

[7] S Matangi, J Pragathi, U Bathini, K Gyana. Synthesis, characterization and antimicrobial activity of transition metal complexes of Schiff base ligand derived from 3-ethoxy salicylaldehyde and 2-(2-aminophenyl) 1-h-benzimidazole. *E-J Chem*, 2012, 9(4): 2516-2523.

[8] Short, B. R., Vargas, M. A., Thomas, J. C., O'Hanlon, S., & Enright, M. C. (2006). In vitro activity of a novel compound, the metal ion chelating agent AQ+,

against clinical isolates of *Staphylococcus aureus*. *J Antimicrob Chemother.*, 57(1), 104–109.

[9] Albrecht, M., Fiege, M., & Osetska, O. (2008). 8-Hydroxyquinolines in metallosupramolecular chemistry. *Coord Chem Rev.*, 252(8–9), 812–824.

[10] Budimir, A. (2011). Metal ions, Alzheimer's disease and chelation therapy. *Acta Pharm.*, 61(1), 1–14.

[11] Crichton, R. R., Dexter, D. T., & Ward, R. J. (2008). Metal based neurodegenerative diseases- From molecular mechanisms to therapeutic strategies. *Coord Chem Rev.*, 252(10–11), 1189–1199.

[12] Vanparia, S. F., Patel, T. S., & Sojitra, N. A. (2010). Synthesis, characterization and antimicrobial study of novel 4-[(8-Hydroxyquinolin-5-yl)methyl]amino}benzenesulfonamide and its oxinates. *Acta Chim Slov.*, 57(3), 600–667.

[13] Rubbo, S. D., Albert, A., & Gibson, M. I. (1950). The influence of chemical constitution on

antibacterial activity, V. The antibacterial action of 8-hydroxyquinoline (oxine). *Br. J. Exp. Pathol.*, 31(3), 425–441.

[14] Enquist, P. A. (2012). Derivatives of 8-hydroxyquinoline - antibacterial agents that target intra- and extracellular Gram-negative pathogens. *Bioorg Med Chem Lett.*, 22, 3550–3553.

[15]. „Medmicro Chapter 52“. 18-avgust 2000-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 21-fevral 2009-yil. Wayback Machine saytida arxivlandi (2000-08-18).

[16]. Rossignol JF (2014). "Nitazoxanide: a first-in-class broad-spectrum antiviral agent". *Antiviral Res.* 110:94103. doi:10.1016/j.antiviral.2014.07.014. PMID 25108173. PMC 7113776.

[17]. ; Leslie H. Nicoll „Pharmacology – Nursing Management“, *Contemporary Medical-Surgical Nursing*. Cengage Learning, 2011, 2012 — 397 bet.

[18]. Kisung Ko, Yoram Tekoah, Pauline M. Rudd, David J. Harvey, Raymond A. Dwek, Sergei Spitsin, Cathleen A. Hanlon, Charles Rupprecht, Bernhard

[19]. Schnitzler, P; Schön, K; Reichling, J (2001). "Antiviral activity of Australian tea tree oil and eucalyptus oil against herpes simplex virus in cell culture". *Die Pharmazie* 56 (4): 343–47. PMID 11338678

[20] Ахметов Н.С. Общая и неорганическая химия. С. Высшая школа, 2002
Dietzschold, Maxim Golovkin, and Hilary Koprowski (2003). "Function and glycosylation of plant-derived antiviral monoclonal antibody". *PNAS* 100 (13): 8013–18. doi:10.1073/pnas.0832472100. PMID 12799460. PMC 164704.

[21] К. М. Ахмеров , А. Жалилов, Р.С. Сайфитдинов “Умумий ва аноорганик кимё”, “Ўзбекистон” 2006

[22]. Барковский Е.В., Ткачев С.В. Основы химии биогенных элементов. –М.: Высшэйшая школа, 2011. -С. 192.

[23]. Gouaref I., Bellahsene Z., Zekri S., Alamir B., Koceir E.A. The link between trace elements and metabolic syndrome/oxidative stress in essential hypertension with or without type 2 diabetes // *Annales de Biologie Clinique (Paris)*.-2016. - V.74. - P. 233–243.

[24]. Maouche N., Meskine D., Alamir B., Koceir E. A. Trace elements profile is associated with insulin resistance syndrome and oxidative damage in thyroid disorders: manganese and selenium interest in Algerian participants with dysthyroidism // *Journal of Trace Elements in Medicine and Biology*. -2015. – V.32. - P. 112–121.

[25]. Rayssiguier Y., Gueux E., Nowacki W., Rock E., Mazur A. High fructose consumption combined with low dietary magnesium intake may increase the

incidence of the metabolic syndrome by inducing inflammation // *Magnesium Research*. -2006. -V.19. -P. 237-243.

[26]. Agay D., Anderson R. A., Sandre C. Alterations of antioxidant trace elements (Zn, Se, Cu) and related metallo-enzymes in plasma and tissues following burn injury in rats // *Burns*. -2005. -V.31. -P. 366-371.

[27]. Литвинова Т.Н., Выскубова Н.К., Ненашева Л.В. Биогенные элементы. Комплексные соединения. – Ростов.: Феникс, 2009. С. -283.

[28]. Авцын А.П., Жаворонков А.А., Риш М.А., Строчкова Л.С. Микроэлементозы человека. -М.: Медицина, 1991. С. -496.

[29]. Mohamed M.M., Shoukry M.M. Interaction of diphenyltin(IV) dichloride with some selected bioligands // *Chem Pharm Bull (Tokyo)*. -2001. -№49(3). -P. 253-257.

[30]. Daniele S., Katalin V., Sarolta T., Giovanni M., Eugenio G. VO^{2+} Complexation by Bioligands Showing Keto-Enol Tautomerism: A Potentiometric, Spectroscopic, and Computational Study // *Inorg. Chem*. -2011. -№50(20). -P. 10328-10341.

[31]. Frost L., Osman A., Geipel G., Viehweger K., Moll H., Bernhard G. The Interaction of U(VI) with Some Bioligands or the Influence of Different Functional Groups on Complex Formation // *The New Uranium Mining Boom*. -2011. -P. 595-606.

[32]. Cobayashi F. Cálcio: seu papel na nutrição e saúde // *Compacta Nutr*. -2004. -V.2. -P. 3-18.

[33]. Branca F, Valtueña S. Calcium, physical activity and bone health - building bones for a stronger future // *Public Health Nutr*. -2001. -V.4. -P.117-123.

[34]. Flynn A. The role of dietary calcium in bone health // *Proc Nutr Soc*. -2003. -V.62. -P. 851-858.

[35]. Kolisek M., Montezano A. C., Sponder G. PARK7/DJ-1 dysregulation by oxidative stress leads to magnesium deficiency: implications in degenerative and chronic diseases // *Clinical Science (London)*. -2015. -V.129. -P. 1143-1150.

[36]. Lin C. C., Tsweng G.J., Lee C.F., Chen B. H., Huang Y.L. Magnesium, zinc, and chromium levels in children, adolescents, and young adults with type 1 diabetes // *Clinical Nutrition*. -2016. -V.35. -P. 880-884.

[37]. Hui-Li Wang, Sheng-Bin Wu, Xiao-Ming Shi, Xiao-Zeng Li, Peng-Peng Hao, Li-Na Zhu Three Single Stranded Helical Coordination Polymers of a Macrocyclic Metalloligand and Mg^{2+} , Zr^{4+} and Pb^{2+} Nodes // *J. Inorg. Organomet. Polym. Mater.*-2015. -V.25. -P. 730-738.

[38]. Dixon S.J., Stockwell B. R. The role of iron and reactive oxygen species in cell death // *Nat. Chem. Bio.* -2014. -V.10. -P. 9-17.

[39]. Hidalgo C., Nunez M.T. Calcium, iron and neuronal function // *IUBMB Life*. -2007. -V.59. -P. 280-285.

[40]. Salih B.M., Satyanarayana S. Vitamin B12 models: Synthesis and characterization of cyano bridged dicobaloximes and antimicrobial activity // *African Journal of Pure and Applied Chemistry*. -2009. -№.3(9). -P 170-176.

[41]. Gad N. Role and Importance of Cobalt Nutrition on Groundnut (*Arachis hypogaea*) Production // *World Applied Sciences Journal*. -2012. -№20(3). -P. 359-367.

[42]. Rink L. Zinc and the immune system // *Proc. Nutr. Soc.*-2000. -V.59. -P. 541-552.

[43]. MacDonald R.S. The role of zinc in growth and cell proliferation // *J. Nutr.* -2000. -V.130. -P. 1500-1508.

[44]. Seo H.-J., Cho Y.-E., Kim T., Shin H.-I., Kwun I.-S. Zinc may increase bone formation through stimulating cell proliferation, alkaline phosphatase activity and collagen synthesis in osteoblastic MC3T3-E1 cells // *Nutr. Res. Pract.* -2010. -V.4. -P. 356-361.

[45]. ГОСТ 19347-2014. Купорос медный. Технические условия.

[46]. Capilla, A. V.; Aranda, R. A. (1979) (ro). *Anhydrous Zinc(II) Acetate* ($CH_3COO)_2Zn$. 8 (*Crystal Structure Communications* nashri). pp. 795-797.

[47]. (Andoza:Нн3 nashri). doi:10.1107/S0365110X53002015.

[48]. Montes, V. A.; Pohl, R.; Shinar, J.; Anzenbacher, P. Jr. Effective Manipulation of the Electronic Effects and Its Influence on the Emission of 5-Substituted Tris(8-quinolinolate) Aluminum(III) Complexes (англ.) // Chemistry - A European Journal (англ.)рус. : journal. — 2006. — Vol. 12, no. 17. — P. 4523—4535. — doi:10.1002/chem.200501403

[49]. Фармаковский Д. SHIMADZU: Новинки аналитического и испытательного оборудования // Аналитика - научно-технический журнал. 2014. Vol. 2. P. 56–63.